

SO‘ZLASHUV USLUBINING EKSTRALINGVISTIK SHART-
SHAROITLARI

Nargiza Muhammatova

Xalqaro innovatsion universitet talabasi

Ilmiy rahbar: Mahliyo Jo‘rayeva, XIU o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqlada hozirgi o‘zbek tilida mavjud bo‘lgan nutq uslublari, ularning orasida so‘zlashuv uslubining tutgan o‘rni haqida so‘z boradi. So‘zlashuv uslubining o‘ziga xos xususiyatlari, uning voqelanishida ekstralinguistik shart-sharoitlarning ta’siri misollar orqali tushuntirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: inversiya, semantik vazifa, tana tili, ekstralinguistik.

Abstract. The article discusses the speech styles existing in the current Uzbek language, and the place of colloquial speech among them. The specific features of colloquial speech, the influence of extralinguistic conditions on its occurrence are explained through examples.

Key words: inversion, semantic task, body language, extralinguistics.

Har qanday zamonda ham ta’lim va tarbiya jarayoni o‘sha millatning o‘z ona tilisida olib boriladi. Chet tilini o‘rganish, unda so‘zlashish ham inson uchun foydali jarayon, ammo o‘zga tilni qanchalik chuqur bilsakda uni qulog‘imiz va aqlimiz bilan qabula qilamiz, ona tilida so‘zlanganda esa qalb ham “tinglashga” tushadi. Oilada, ko‘chada kishilarning fikr almashish jarayonida qo‘llaniladigan nutq uslubi so‘zlashuv uslub sanaladi. So‘zlashuv uslubi boshqa nutq uslublaridan o‘zidagi bir nechta xususiyati bilan farqlanadi:

Gap bo‘laklarining erkin joylashuvi. Bilamizki, so‘zlashuv uslubida gap bo‘laklarining odatiy tartibini xohlagancha o‘zgartirish mumkin. Gap bo‘laklari tartibi qanchalik o‘zgarmasini bu holat so‘zlovchining fikrni yetqazish jarayonida ham, tinglovchining fikrni anglab olishida ham to‘sinqinlik qilmaydi. O‘zbek tilshunosligida gap bo‘laklarining bunday ko‘rinishda joylashuvini inversiya deb ataymiz. *Bugun*

Madina o‘qishga boradimi? (Madina bugun o‘qishga boradimi? Gap bo‘laklarining odatiy tartibi bo‘yicha shu holatda bo‘lishi kerak). *Kutubxonaga ketdik, Nargiza.* (Nargiza, kutubxonaga ketdik). Inversiyaning bu gaplarda qo‘llanilishidan murod uning semantik vazifasidan foydalanish. Semantik vazifa deganda ma’lum maqsadga ko‘ra biror gap bo‘lagini alohida ta’kidlash hamda nutqqa emotSIONAL-ekspressiv ruh berishga aytiladi.

Erkinlik. Har bir til, avvalo, o‘zining ichki imkoniyati asosida rivojlanadi, boyiydi, taraqqiy etadi. Bugunda takomiliga yetgan o‘zbek tilining ham uzoq taraqqiyotida dialekt va shevalar asos vazifasini o‘tagan. So‘zlovchi shaxs so‘zlayotganda to‘la holatda talaffuz erkinligiga ega bo‘ladi. Ya’ni o‘zining yashab turgan hudud shevasiga moslashi, vaziyat va tashqi sharoitni inobatga olib so‘zlarini erkin tanlab ishlatishi mumkin bo‘ladi: Yurtimizga bohor kirip keldi (adabiyda: Yurtimizga bahor kirib keldi).

Tana tili va to‘liqsiz gaplardan foydalanish. Tana tili deganda so‘zlar vositasida emas, balki insonning turli tana a’zolari yordamida kishilar bilan muloqot qilish jarayoniga aytiladi. Inson bunday noverbal muloqot vositasidan har yerda (televiedeniya, ish, ko‘cha, oila davrasi hatto rasmiy qabulda) o‘rinli foydalanishi mumkin. O‘zi to‘la anglab yetmagan holatda kino yulduzlaridan Charli Chaplin ovozsiz, tana harakatlari orqali nafaqat tomoshabinga o‘z fikrlarini yetqazdi, balki ularning ko‘tarinki kayfiyatiga ham sababchi bo‘ldi. Fandagi sezgining turlariga ko‘ra “oltinchi sezgi” bir voqelikni oldindan sezish ham aniqlangan. Unga ko‘ra biz yonimizdagи insonning bizga yolg‘on gapirayotganligini aynan tana tilidan foydalanishiga diqqatli bo‘lganligimiz sababli amalga oshirar ekanmiz. Sud tergovchilarida ham bunday hislat yaxshi rivojlangan bo‘lmog‘i lozim. U so‘roqlanuvchi kishining qo‘l, oyoq, ayniqsa ko‘z qarashlaridan so‘zlar rost yoki yolg‘onligini oson aniqlab oladi. Butun jahonda imo-ishoralar orqali muloqotga kirishish usuli deyarli farq qilmaydi. Insoniyat borki, baxtli bo‘lsa-kuladi, g‘amgin bo‘lsa-qovoqlarini uyadi, g‘azablansa- o‘grayib qaraydi. Boshni irg‘atib qo‘yish esa butun insoniyat uchun tasdiq (ha deyish) ni anglatadi.

Ekstraliningvistika tashqi lingvistika bo‘lib, tilning taraqqiyotini, asosiy vazifasini ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-tarixiy, etnik, kabi bir nechta faktorlar bilan bog‘liq holda o‘rganadi. Shunga ko‘ra u tilni ijtimoiy hodisa deb tekshiradi. So‘zlashuv uslubini kundalik-maishiy hayotda faol qo‘llanilganligi uchun so‘zlashuv-maishiy uslub deb ham ataymiz. Chunki, bunday nomlanilishiga bir nechta ekstraliningvistik sabablar bor. Ijtimoiy hayotning ma’lum bir sohasiga xizmat qilayotgan til so‘zlashish jarayoni bilan bog‘liq, shu sababli uning nomlanilishini ham shu so‘zga bog‘liq holda olsak to‘g‘ri bo‘ladi. Bu jarayon bevosita oddiy xalq orasida sodir bo‘layotganligi sababli anchagina sodda holatda bo‘lishi tabiiy. Ekstraliningvistik omil so‘zlashuv uslubida rivojlanganligining yana bir sababi uning yozma ko‘rinishi yo‘qligidir (bilamizki, badiiy, rasmiy, ilmiy, publitsistik uslublarning barchasida ham og‘zaki, ham yozma shakl mavjud). Tildan foydalanishdagi oddiylik, soddalik, norasmiylik so‘zlashuv uslubining asosi bo‘ladigan bo‘lsa, uning istemolida hech bir o‘rinda chegara qo‘ya olmaymiz. Har qancha cheklov qo‘yilganda ham ular, avvalo, madaniy hayotga keyin esa ilmiy, o‘quv jarayoni va so‘ngida adabiy tilga to‘qnash keladi. Bunday to‘qnashuv so‘ngida baribir adabiy til me’yorlari o‘z ustunligini ko‘rsatadi. Adabiy til so‘zlashuv tilidan oziqlanadi, chunki so‘zlashuv jarayonida insonlar shaxsiy, maishiy hattoki rasmiy suhbatlarni ham amalga oshiradilar.

Mana shu ekstraliningvistik shart-sharoitlar so‘zlashuv uslubida tildan foydalanishning o‘ziga xos me’yorlarini belgilaydi. Nutqqa oldindan tayyorlanish imkonи bo‘limganligi sababli tildan foydalanish me’yoriga putur yeta boradi. Bu esa o‘sha tilning sheva asoratlaridan qutula olmaslik holatini keltirib chiqaradi. Shundan kelib chiqib so‘zlashuv uslubining badiiy va publitsistik uslublarga ta’siri katta deya olamiz.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, Muloqot jarayonida suhbatdoshlarning erkin bo‘lishi ekstraliningvistik imkoniyatlarini kengaytirar ekan. Ammo bunday so‘zlashuv erkinligini chegaralaydigan holatlar ham mavjud. Ular turli xil tarbiyaviy-axloqiy va etik sabablardir. Yuqorida aytilganlardan kelib chiqib, so‘zlashuv uslubining amalda bo‘lishining ham o‘z me’yorlari, qonunlari bor deb ayta olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Karimov S. Til ta’limi va me’yor. – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi Xalq me’rosi nashriyoti, 2002.
2. Yusupov K. O’zbek adabiy tilining leksik-semantik va stilistik xususiyatlari. – Toshkent: Fan, 1986.
3. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: ‘O’zbek milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti.
4. Erkaboyeva, N. O’zbek tilidan ma’ruzalar to‘plami. "Yosh kuch" - Toshkent, 2021.
5. N. M. Mahmudov, A. Nurmonov, A. Sh. Sobirov. Ona tili. Umum o‘rta ta’lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik. 4-nashr. Toshkent: 2014.